



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HAL PDF V QARORI

G'uzor tumani

2022 yil 14-iyun

4-1803-2102/629-sonli ish

G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudning sudyasi N.S.Xo'jaqulov raisligida, sudya yordamchisi B.Shamsiddinovning kotibligida arizachi [REDACTED] qarzdor [REDACTED] soddalashtirilgan tartibda bankrot deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishni arizachi vakili G.Sharobov (18.01.2022 yildagi 25-00179-sonli ishonchnoma asosida) ishtirokida G'uzor tuman Davlat soliq inspeksiyasi sudi binosida ochiq sayyor sud majlisida ko'rib, quyidagilarni

a n i q l a d i:

Arizachi [REDACTED] sudga ariza bilan murojaat qilib, qarzdor [REDACTED] soddalashtirilgan tartibda bankrot deb topishni so'ragan.

Sud majlisida ishtirok etgan arizachi vakili o'z ko'rsatmasida qarzdorning budjet oldidagi qarzini to'lash qobiliyati yo'q ekanligini, balansida mol-mulk mavjud emasligini, shu sababdan qarzdorni soddalashtirilgan tartibda bankrot deb e'tirof etishni so'radi.

Qarzdor sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan bo'lsa-da sud majlisiga kelmagan.

Mazkur holatda sud javobgarni Iqtisodiy protsessual kodeksning 128-moddasi tartibida xabardor qilingan deb hisoblab, ishni javobgar vakilining ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Sud, ishda ishtirok etgan arizachining tushuntirishlarini tinglab, ishdagi mavjud hujjatlarni o'rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko'ra, arizani qanoatlantirishni lozim topadi.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, qarzdorning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi qarzi 2021 yil 2 dekabr holatiga 6 443 863 so'mni, tashkil etib, ushbu qarzdorlikni to'lov muddati uch oydan oshgan va qarzdor ushbu qarzlarni to'lash imkoniga ega emas.

Qarzdorliklarni undirish bo'yicha sud ijro hujjatlari qarzdorning mol-mulki yo'qligi sababli ijro qilinmasdan qaytarilgan.

"Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (bundan buyon matnda - Qonun)ning 4-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida



qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi.

Qonunning 5-moddasida, bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida bosh karxasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 27 yanvardagi "Bankrotlik to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini xo'jalik sudlari tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 142-sonli qarorining 35-bandiga asosan, qarzdorni bankrotlikning soddalashtirilgan taomili bo'yicha bankrot deb topish (tugatlayotgan yoki hozir bo'lmagan qarzdor) haqidagi arizani qabul qilishda kreditorlik qarzlarning miqdori ahamiyatga ega emas. Hozir bo'lmagan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida ariza berilganda, qarzdor — yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxs rahbarining hozir bo'lmaganligini, shuningdek ularning turar joyini aniqlashning imkoniyati yo'qligini tasdiqlovchi dalillar xo'jalik (iqtisodiy) sudiga taqdim etilishi kerak. Bunday dalillar manzil ma'lumot byurosi tomonidan shaxsning ro'yxatdan chiqib, boshqa hududga ketganligi haqida berilgan ma'lumotnoma, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati vakillari ishtirokida shaxsning ro'yxatga olingan manzilda yashamasligi to'g'risida tuzilgan dalolatnoma, shaxsning vafot etganligi yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lishi mumkin. Qarzdorning hozir bo'lmaganligi sifatida nafaqat uning rahbari yo'qligi, balki xo'jalik yurituvchi sub'ekt mol-mulkinging yo'qligini ham tushunish lozim. Bu hol qarzdor — yuridik shaxs turgan joyi (pochta manzili) bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati, turarjoy yoki odam yashamaydigan joyning mulkdori vakillari va (yoki) sud boshqaruvchisi ishtirokida tuzilgan dalolatnoma yoxud qarzdorning mol-mulki mavjud emasligi sababli ijro hujjatini ijrosiz qaytarish to'g'risidagi sud ijrochisining qarori bilan tasdiqlanishi mumkin. Tugatlayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi arizada tugatish boshqaruvchisining nomzodi arizachi tomonidan ko'rsatiladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan qarzdor "Nazarov Erkin Ergashevich" fermer xo'jaligini tugatish boshqaruvchisi etib tayinlash uchun 2-toifali sud boshqaruvchisi A.Raxmonovning nomzodi tavsiya qilingan.

Qayd etilganlarga asosan hamda qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni uch oy va undan ko'p muddatda bajarishga qodir emasligini inobatga olib, sud arizachining talabini qanoatlantirib qarzdorni bankrot deb topishni va sud xarajatlarini qarzdor zimmasiga yuklashni lozim topadi.

Yuqoridagilarga asosan, "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 36, 118, 170, 176-179, 186, 192-193-moddalarini qo'llab, sud



qaror qiladi:

Arizachi [redacted] arizasi qanoatlantirilsin.

Qarzdor [redacted] bankrot deb topilsin va tugatishga doir ish yuritish boshlansin.

Qarzdor [redacted] tugatish boshqaruvchisi etib 2-toifali sud boshqaruvchisi A.Raxmonov tayinlansin.

Tugatish boshqaruvchisi [redacted] onov zimmasiga qarzdor bankrot deb topilganligi va tugatishga doir ish boshlanganligi haqida rasmiy nashrda e'lon berish, tugatishga doir ish yuritishni "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun asosida tashkil etish va o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2013 yildagi 224-sonli "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi"gi Qaroriga asosan soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa tayyorlash va hulosani G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudiga taqdim etish, tugatish jarayonida qarzdor korxonaning mol-mulki yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni to'liq olish va qilingan ishlar haqida har oyda 1 (bir) marta G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudiga yozma oraliq hisobot taqdim etib borish hamda tugatish ishlarini 2022 yil 19 aprelga qadar yakunlash vazifasi yuklatilsin.

Qarzdor [redacted] hisobidan Respublika byudjetiga 810 000 so'm davlat boji hamda G'uzor tuman davlat soliq inspeksiyasi foydasiga 21 600 so'm pochta xarajati undirilsin.

Hal qiluv qarori darhol ijroga qaratilsin.

Ijro varaqasi berilsin.

Mazkur hal qiluv qaroridan norozi taraflar bir oylik muddat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat berish (prokuror protest keltirish)ga haqli.

Sudya

N.S.Xo'jaqulov

